International Conference on
Linguistics, Literature And Translation

International Conference on Linguistics, Literature And Translation - double-blind peer-reviewed, monthly, open-access procedding published to get ecxellence on Research and Development. It publishes high-quality articles across the breadth of linguistics, literature and translation research. With its uniquely broad coverage, all articles are free to access across the globe, allowing authors to share their research and maximise its impact. The boletin on Linguistics, Literature And Translation is led by expert international editorial board members who take an objective approach to peer review, ensuring each research paper is reviewed and evaluated on its own scholarly merits and research integrity. Joining your work in the International Conference of Linguistics, Literature, and Translation means you will receive prompt and reliable publishing and a global platform for your research to reach its full potential.

TARIXIY ROMANLAR MATNIDA EVFEMIK BIRLIKLARNING IFODALANISH USULLARI

Akbar Ruziyev
F.f.f.d (PhD), dotsent
Ro‘zmetova Gulyor
ToshDO‘TAU 2-kurs magistranti

Annotatsiya
Ushbu maqolada tarixiy romanlar matnida evfemik birliklarning qo‘llanilishi va ularning lingvopragmatik xususiyatlari tahlil etiladi. Tadqiqotda evfemizmlarning badiiy matndagi yumshatish, ijtimoiy-madaniy me’yorlarni aks ettirish hamda nutqiy strategiyalarni ifodalashdagi o‘rni yoritiladi. Tarixiy asarlar misolida evfemik birliklarning semantik va funksional jihatlari aniqlanadi. Shuningdek, ular orqali muallifning adresatga ta’sir ko‘rsatish usullari ko‘rib chiqiladi. Evfemizmlarning qo‘llanishi davr ruhini berish va tarixiy kolorit yaratishda muhim vosita ekanligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari tarixiy matnlarning diskursiv-pragmatik talqinini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: evfemizm, tarixiy roman, lingvopragmatika, diskurs, badiiy matn, nutqiy strategiya, semantika, stilistika

Language Evfemizm hodisasi tilshunoslikda muhim pragmatik va stilistik kategoriya sifatida qaraladi. U nutqda qo‘pol, noqulay yoki ijtimoiy jihatdan nomaqbul bo‘lgan tushunchalarni yumshatib ifodalash vositasi hisoblanadi. Evfemizmlar tilning antropotsentrik mohiyatini aks ettirib, insonning nutqiy xulq-atvori, madaniyati va kommunikativ ehtiyojlari bilan bevosita bog‘liq holda yuzaga chiqadi. Murojaatda xushmuomalalik, odob-axloq qoidalariga rioya qilish, kishining xatti-harakatiga munosabat bildirish yoki uni tavsiflash jarayonida betakalluf tuyulgan so‘z va iboralarni mulozamat so‘zlariga o‘zgartirishga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari, u yoki bu so‘zni evfemistik qo‘llash, uni maqbul variantga almashtirish nafaqat voqea-hodisaga munosabat bildirish istagi, balki gapirayotgan (bayon qilayotgan) yoki yozayotgan kishining huquqiy holat (status)iga ham bog‘liq. Evfemizm hodisasi XX asr boshlarida umumtilshunoslikda J. Vandries , L.A. Bulaxovskiy kabi tilshunoslar tomonidan soha bilan bog‘liq adabiyotlarda qayd etilgan bo‘lib, ularning fikr-mulohazalari evfemizm mohiyati tavsifining shakllanishida muhim

ahamiyat kasb etadi. Ushbu hodisani alohida millat, alohida jins vakillari (oltoy ayollari nutqi) misolida tadqiq etgan olimlar sirasiga A.N. Samoylovich , N.A. Baskakov larni kiritish mumkin. Ular evfemizmni etnik hodisa sifatida kuzatib, ko‘pqirrali jihatlarini yoritishga harakat qilishadi. E.A. Agayan , O.N. Turbachev lar ham ma’lum guruh mentalitet doirasida bu til hodisasini tadqiq etishdi. S. Otayev turkman tili evfemizmlari, G.G. Musaboyev qozoq tili evfemizmlari, V.P. Dorbakova mongol xalqi evfemizmlari, N.G. Mixaylovskaya Uzoq sharq tillari – chukot, xanti-mansiy, nanay xalqlari tilida uchraydigan evfemizmlarni tahlil qilishgan. Shuningdek, tuva tilida uchraydigan evfemizmlar borasida S.P.Vanshteyn , Sh.Ch.Sat , ingliz tilida uchraydigan evfemizmlar xususida I.V.Arnold kabi tadqiqotchilar ham o‘z ishlarida ba’zi fikrlarni bildirishgan.

O‘zbek tilshunosligida bu atama 1963-64-yillarda N.Ismatullaevning “Hozirgi o‘zbek tilida evfemizmlar” nomli dissertatsiyasi orqali o‘rnashdi. 1997-yilda A.Omonturdiev evfemizmni “Uslubshunoslikning tadqiqot ob’ekti sifatida allaqachon o‘z yechimini topishi kerak bo‘lgan mavzu” sifatida keng doirada o‘rganib, o‘zbek nutqining evfemik asoslarini tadqiq qiladi.

Pirimqul Qodirov va Odil Yoqubov romanlaridagi evfemik birliklar ham seqirra bo‘lib, bu ularni har bir belgisi asosida turlicha tasnif qilish imkonini beradi. Lisoniy belgilar asosidagi tasnifda evfemik birliklarning mavzuviy, semantik, ma’noviy, uslubiy xoslanganlik kabi qator xususiyatlariga tayanildi va ishda adiblar asarlaridagi evfemizmlarning lisoniy belgilar asosidagi tasnifi berildi. Yozuvchilar romanlaridagi evfemik ma’noli birliklarni mavzuviy guruhlarga bo‘lar ekanmiz, adib asarlaridagi qo‘llangan evfemizmlar, miqdor jihatidan rang-barang bo‘lish bilan birga, mavzuviy jihatdan ham xilma-xil:

1.Shaxsni anglatuvchi evfemik vositalar: Amirzodam, amir, hazratim, mirzo hazratlari, a’lohazratlari, sulton hazratlari, Sohibqiron- Amir Temurga nisbatan, Imomi zamon, xalifayi rahmon, Iskandari soniy- Shayboniyxonga nisbatan (to‘g‘ridan- to‘g‘ri ism o‘rniga) mavlono, pir, alloma, taqsir, pushtipanoh, gunohkor, betavfiq, tulki, gunohkor, faqir, qulingiz, hazrat begim, xonim hazratlari, begim, juvon, gul, gulruxsor, kaniz. “Yulduzli tunlar” romanida esa “Hazratim”, “Mirzo hazratlari”, “A’lohazratlari”, “Sulton hazratlari”, “Amirzodam” kabi evfemizmlar hammasi bir xil ma’noni ya’ni “podshoh” so`zini ifodalab, shunday evfemizmlar orqali izohlanib o`tilgan.

1. -Hazratim, sizni iloho chohoryori bosafolar qo‘llab-quvvatlasinlar!-deb qo‘shib qo‘ydi.

2. -Mirzo hazratlariga yog‘iylik maqomida bo‘lgan chagraklar o‘lpon to‘lashdan bosh tortganlari uchun o‘n olti ming qo‘ylari, ikki yarim ming yilqilari jarima tarzida tortib olib kelindi!

3.Insonning jismoniy holatini anglatuvchi evfemik ifodalar: Og‘iroyoq, beli yo‘g‘onlashmoq, qorni do‘ppayib qolmoq, ikkiqat, dunyoga kelmoq, hayot kechirmoq, hayot bag‘ishlamoq, jon bag‘ishlamoq, jon saqlamoq, bedarmon, holsiz;

Ilgari ham otda yurolmaydigan, mahofada boshi aylanadigan begim endi og‘rioyoqligida qanchalik qiynalganini, unga qarab qanchalik sekin yo‘l bosganlarini Bobur o‘zicha tasavvur etdi.

4.Inson ruhiy kechinmalarini anglatuvchi evfemizmlar: xush ko‘rmoq, mashaqqat chekmoq, ma’qul ko‘rinmaydi, ixtiyor qilmoq, imon keltirmoq (ishonch hosil qilmoq), sog‘inmoq (tilamoq), nazdida, xushnud bo`lmoq, yurak bo‘shatmoq, muzaffarona;

…Chindan ham, kuch—adolatda ekaniga men endi astoydil imon keltirdim! Buyuring, toki umrim boricha sizga xizmat qilay!

5.Oila so‘zlashuviga xos evfemizmlar: padari buzrukvor, ota, aka, qiz, iningiz, opa, o‘g‘il, tog‘oyingiz, jiyan, egachingiz (ona, opa va ayoli ma’nosida), qaynegachi (qaynopa) ...yoshga qadam qo‘ymoq, …yashar, ona, volidai muhtarama (ona);

— Men egachimning qanoti ostida hech narsadan qo‘rqmaymen! Dargohingizdan adoi tamom bo‘lib kelib, egachimning yonida yana tirildim!

Xulosa: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tarixiy romanlar matnida evfemik birliklar muhim lingvopragmatik vosita sifatida faol qo‘llanadi. Ular orqali muallif noqulay yoki salbiy mazmunli tushunchalarni yumshatib ifodalash, nutqning etik me’yorlarga mosligini ta’minlashga erishadi. Evfemizmlar badiiy matnda nafaqat semantik o‘rin egallaydi, balki stilistik va diskursiv

vazifalarni ham bajaradi. Xususan, ular obraz nutqini individuallashtirish, davr ruhini aks ettirish va tarixiy kolorit yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, evfemik birliklar adresant va adresat o‘rtasidagi kommunikativ munosabatlarni tartibga soluvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ular nutqiy strategiyaning muhim elementi bo‘lib, fikrni ta’sirchan va madaniy jihatdan maqbul shaklda yetkazishga xizmat qiladi. Umuman olganda, tarixiy romanlarda evfemizmlarning qo‘llanilishi tilning antropotsentrik mohiyatini ochib berish bilan birga, badiiy matnning pragmatik va diskursiv xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini yaratadi.

References

1. Sh. Rahmatullayev, Modern Uzbek Literary Language, Tashkent, Uzbekistan: University, 2006.
2. A. Nurmonov, Theoretical Grammar of the Uzbek Language, Tashkent, Uzbekistan: Fan, 2012.
3. N. Mahmudov, Language and Speech, Tashkent, Uzbekistan: National Encyclopedia of Uzbekistan, 2010.
4. M. Yuldoshev, Modern Uzbek Grammar, Tashkent, Uzbekistan: Science and Technology, 2014.
5. B. Mengliyev, Modern Uzbek Language, Tashkent, Uzbekistan: Garden of Thought, 2016.
6. S. Usmonov, Grammar of the Uzbek Language, Tashkent, Uzbekistan: O'qituvchi, 1995.
7. A. Hojiyev, Issues of Uzbek Language Grammar, Tashkent, Uzbekistan: Fan, 2003.
8. G'. Abdurahmonov, Historical Grammar of the Uzbek Language, Tashkent, Uzbekistan: Fan, 2008.
9. H. Ne'matov, Fundamentals of Linguistics, Tashkent, Uzbekistan: Sharq, 2011.
10. R. Sayfullayeva, Theoretical Issues of Modern Uzbek Language, Tashkent, Uzbekistan: Fan, 2018.